

**FRANSUZ FRAZEOLOGIK BIRLIKLARI STRUKTUR XUSUSIYATLARI**

**Ismoilova Quvonchoy**  
TerDU Xorijiy filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Tilshunoslikda Frazeologiya alohida bo`lim sifatida shakillanib kelayotgan bir paytda, mazkur sohaga oid tadqiqotlar soni va sifat jihatdan oshib borayotganligini ko`rish mumkin. Mazkur maqolada fransuz tili frazeologik birliklarining struktur xususiyatlari borasida fikr yuritamiz.

**Kalit so`z :** struktur tahlil, semantika, predekativ frazeologik birliklar, noperedikativ frazeologik birliklar, qisman predikativ frazeologik birliklar, bir unsurli frazemalar, ochiq va yopiq strukturali frazemalar.

**STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF FRENCH PHRASEOLOGICAL UNITS**

**Abstract.** While Phraseology is being formed as a separate department in linguistics, it can be seen that the number and quality of research in this field is increasing. In this article, we will discuss the structural features of phraseological units of the French language.

**Key word:** structural analysis, semantics, predicative phraseological units, non-predicative phraseological units, partially predicative phraseological units, one-element idioms, open and closed structural idioms.

**СТРУКТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАНЦУЗСКИХ  
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ**

**Аннотация.** В то время как фразеология формируется как отдельный раздел в языкоznании, видно, что количество и качество исследований в этой области увеличивается. В данной статье мы обсудим структурные особенности фразеологизмов французского языка.

**Ключевые слова:** структурный анализ, семантика, предикативные фразеологизмы, непредикативные фразеологизмы, частично предикативные фразеологизмы, одноэлементные фразеологизмы, открытые и закрытые структурные фразеологизмы.

Tilshunoslikda Frazeologiya sohasini rivojlantirish uchun qilinayotgan tadqiqotlar bilan birga uning tarixiga ham nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Dastlab, shvetsar-fransuz olimi Sh.Balli o`zining “Traite de stylistique française” [ Bally, Ch: 1921] kitobida fraeologik birliklarga oid fikrlarini bayon etgan. Keyinchalik, Ye.D.Polivanov bиринчи bo`lib, frazeologiyani fan sifatida ajratib o`rganish zarurligini ta`kidladi. 1940-50- yillard davomida V.V. Vinogradovning bu fan rivojiga qo’shgan hissasi tilshunoslik tarixida muhim iz

goldirdi. Frazeologik birliklarni turli xil aspektlar nuqtai nazaridan tadqiq etish g'oyasini ilgari surdi. V.L.Arhangelskiy, O.S.Axmanova, L.I.Royzenzon, N.M. Shanskiy singari bir qator tilshunoslar frazeologiyaning maxsus fan sifatida shakllanishiga alohida hissa qo'shdilar. Fransuz tilshunoslardan Alain Rey (1970, 1973, 1976, 1990), R. Galisson (1984), Moris Gross (1982, 1988), C. Duneton (1990), B. Lafleur (1991), G.Rey, o'zbek tilshunoslardan Sh.Rahmatullaev, H.Berdiyorov, M.Umarxo'jaev , L.I.Royzenzon , M.Sodiqova, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabilar frazeologiya sohasida salmoqli tadqiqot olib brogan tilshunos olimlardan sanaladi.

Bizga ma'lumki, frazeologiya so'zi grekcha phrasis so'zidan olingan bo'lib, ibora, nutq qurilmasi degan ma'noni anglatadi. Odadta frazeologiyaning tadqiqot ob`ekti sifatida, tilda tayyor holda turuvchi, obrazli, ko`chma ma`no anglatuvchi turg'un birikmalarni tushunamiz. Uning sathini belgilash ko`plab tilshunoslardan tomonidan turlicha ko`rsatiladi, ba`zilari FB larni tor ma`noda, boshqalari keng ma`noda tadqiq etishni taklif qilishadi. Hozirda aforizmlar, tildagi kleshelar, kalambur, maqol, idioma kabilar frazeologiyada keng tadqiq qilinadi. FB lar haqida gap ketganda dastlab ularning struktur xususiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunda biz faqat somatik FB lar asosida tahlilni amalga oshiramiz. Fransuz FBlarini klassifikatsiyalashda dastlab uch turga ajratamiz:

- 1) Frazeologik birliklarni struktur jihatdan tasniflash;
- 2) Frazeologik birliklarni tildagi funksiyasiga ko'ra tasniflash;
- 3) Frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasniflash.

FBlarni struktur jihatdan tasniflashda ularga xos xususiyat bu FBlarning struktur grammatik belgilariga asoslanadi va ular ham 3 tur: nopredikativ, predikativ, qisman predikativ ga ajratiladi.

Nopredikativ FBlarda kesim ishtirok etmaydi va ular ikki turga bo'linadi: bir komponetli va juft/ikki yoki undan komponentli frazemalar.

Bir unsurli FBlar bir mustaqil so'z va bir yoki ikki yordamchi so'zdan tashkil topadi va unda umumsintaktik aloqaga asoslanadi. Bunga misol tariqasida quyidagi birikmalarni keltirishimiz mumkin: comme un gant-mukammal, comme un manche-ahmoqlarcha/ahmoqona tarzda.

Nopredikativ frazemalarda ikki va undan ortiq mustaqil so'z mavjud bo'ladi va ular tobe` va bog'lanish aloqaga asoslanadi. Misol uchun :

- Jeter de la poudre aux yeux – ko`ziga cho`p suqmoq ;
- Être pris à la gorge – bo`g`ziga kelmoq ;
- Prendre ses jambes à son cou – oyog`ini qöliga olmoq (yugurish) ;
- Ne pas avoir froid aux yeux - /sovuuqqonjasur bo`lmoq ;
- Avoir la tête comme un tambour-boshi tamburday shishib ketmoq ;
- Mener par le bout du nez -burnidan ip o`tkazmoq ;
- Avoir le bras long- qo`liuzun bo`lmoq(imkoniyat) ;
- Jeter un coup d'œil-ko`z qirini tashlamoq va hokazolar.

Predikativ frazeologik birliklarning ham ikki turi mavjud bo'lib ular:

- 1) Ochiq strukturali
- 2) Yopiq strukturali deb ataladi.

Ochiq strukturali frazemalar tugallanmagan fikrni ifodalaydi. Masalan: bouche à oreille-og`izdan-og`izga, à bras-le-corps-butun borlig`i bilan, à tour de bras-qayta-qayta, corps de garde-asosi bo`g`in(bog`lovchi ko`prik), corps et âme-jonga-jon, à corps perdu-so`nggi nafasigacha, cul-bénit-taqvodor, cul-terreux-bobo dehqon(yerning asl egasi), du bout des dents-tortinchoq, uyalchang, face contre terre-boshi egilgan.

Yopiq strukturali frazeologik birliklarda esa tugallangan fikr ifodalanadi : savoir/connaître sur le bout des doigts-biror narsani ipidan ignasigacha o`zlashtirmoq, avoir une grande gueule-katta gapirmoq, se jeter dans la gueule du loup-o`zini chohga tashlamoq, ça m'a coupé les jambes-ustimdan kulishdi, avoir le cœur sur les lèvres-tili bilan dili bir bo`lmoq, se brûler les lèvres-og`ziga erk bermoq, il y a loin de la coupe aux lèvres-haqiqatdan anche yeroqda, demander la main de quelqu'un-qo`lini so`ramoq, pris la main dans le sac-jinoyat paytida ushlangan va boshqalar.

Demak, frazeologik birliklarning o`ziga xos belgilar sifatida idiomatiklik, turg'unlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni ko`rsatish mumkin. Ular so'zdan ravishda ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo`lmagan mustaqil so'z mayjud bo`lgan tilga xos alohida ko`rinishga ega murakkab birlik hisoblanib tilda oldindan tayyor holatda bo`lsa, so'z birikmalari esa nutq jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladi. FBlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, struktur belgilaridan biri ularning alohida so`zlardan yasalganligi bo`lib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni so`zlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va ma'no birligiga ega bo`lgan turg'unnofrazeologik birliklardan farqlay olmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
2. Виноградов, В.В. Основные понятия русской фразеологии Текст. / В.В. Виноградов // Труды юбилейной научной сессии ЛГУ. 1946 - 203 с.
3. Маматов А.Э. История и теория языковой нормы.-Шымкент,2006.-96 с.
4. Isroilova M. L'IMPORTANCE DU STATUT DES UNITÉS PHRASÉOLOGIQUES SOMATIQUES DANS LA PRESSE ECRITE FRANÇAISE., <https://t.me/myscienceuz>
5. Умбаров Н., Ҳамроқулов Г. Ҳозирги замон француз тили лексикологияси. Тошкент, «Ўқитувчи”, 1996. -Б.72.
6. Grand Robert de la langue française. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française Texte. 2-eme ed. - Paris: Robert, 1986. - En 9e volume entierement revue et enrichie par Alain Rey.